



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2021- YILNING YANVAR-OKTABR OYLARIDA JIZZAX VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdagi vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi – 57,6 %

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi – 3 697,8 ming so'm

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi – 5 260,9 mlrd. so'm

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi – 61,6 %

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari - 118,8%

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning o'sish sur'atlari – 116,3 %

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 260,9** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **1 169,6** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **118,8 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Jizzax viloyati statistika boshqarmasi




2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan, tovarlar, xizmatlar yoki moliyaviy aktivlarni almashtirishga yordamlashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasidir.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslash, mlrd. so'm



2021- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning oktabr oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **169,9** mlrd. so'mga o'sdi va **611,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning mos davrida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **145,5** mlrd. so'mga pasaygan va **520,0** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yilning sentabr oyiga nisbatan joriy yilning oktabr oyida (diskret oy) xizmatlar hajmi **8,1** mlrd. so'mga o'sdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning sentabr oyiga nisbatan 2020- yil oktabr oyida xizmatlar hajmi **29,6** mlrd. so'mga o'sgan.

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da

Nisbatan past ko'rsatkich

Nisbatan yuqori ko'rsatkich




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar-oktabr oylarida bu xizmatlarning ulushi **31,4 %** ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy (**25,3 %**), transport xizmatlari (**16,4 %**), shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlari (**4,5%**) bo'yicha qayd etildi.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,3 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmning **31,5 %** ini tashkil etgan. 2020- yilning shu davrida me'morchilik sohasidagi xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,4 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

2021- yil yanvar-oktabr oylarida yuqori o'sish sog'liqni saqlash xizmatlarda (**40,4 %**), moliyaviy xizmatlar (**27,5 %**), boshqa xizmatlar (**25,0 %**), ta'lim sohasidagi xizmatlarda (**22,5 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**16,8 %**), ijara xizmatlar (**16,7 %**), hamda, kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlarida (**16,6 %**) qayd etildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining biroz o'sishi yashash va ovqatlanish xizmatlari xizmatlarda (**8,5 %**) qayd etildi.

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida sog'liqni saqlash xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **140,4** %. Yashash va ovqatlanish xizmatlarida keskin pasayish kuzatilgan – **8,5** %.



Jizzax viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri kelmoqda.

Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da

2020- y. yanvar-oktabr

2021- y. yanvar-oktabr

56,1

56,2

43,9

43,8

Yo'lovchi tashish

Yuk tashish

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida avtomobil transportida yuk tashish xizmatlarining ulushi **56,2** % ga yetdi.


Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-oktabr oylarida yuk tashish xizmatlarining ulushi **56,1** % ni tashkil etgan.



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Umumiy avtomobil transporti xizmatlari hajmida hududlarning ulushi, % da (2021- yil yanvar-oktabr oylarida)



2021- yilning yanvar-oktabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **849,0** mlrd. so'mga teng bo'ldi.


2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan ushbu xizmatlar hajmi **15,6 %** ga oshdi.



2021- yil yanvar-oktabr


Dastlabki ma'lumotlar

Avtomobil transporti xizmatlarining o'sish sur'ati, % da (2021- yil yanvar-oktabr oylarida)



2021- yilning yanvar-oktabr oylarida avtotransport xizmatlarining yuqori o'sishiga Jizzax sh. (**22,2** %), Sharof Rashidov (**18,1** %), Do'stlik (**17,6** %) va Paxtakor (**16,4** %) tumanlarida erishildi. Ushbu sohadagi xizmatlarida keskin pasayish Arnasoy tumanida kuzatilgan – 36,5 %.





Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdogaga bo'linadi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **31,4 %** ni tashkil etib, bu **1 650,1** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ularning hajmi **1 288,1** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **31,5 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2021-y.
yanvar-
oktabr



2020-y.
yanvar-
oktabr

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar kesimida savdo xizmatlarining hajmi, mlrd. so'mda (2021- yilning yanvar-oktabr oylarida)



2021- yil yanvar-oktabr oylarida savdo xizmatlarining eng katta hajmi Jizzax shahrida qayd etilgan – **368,0** mlrd. so'm.

Shu bilan birga, hududlar orasida G'allaorol (**228,5** mlrd. so'm), Zomin (**191,6** mlrd. so'm), Sharof Rashidov (**169,5** mlrd. so'm), Baxmal (**153,0** mlrd. so'm), Forish (**114,0** mlrd. so'm), Zarbdor (**85,8** mlrd. so'm) va Do'stlik (**82,3** mlrd. so'm) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

2021- yil yanvar-oktabr


Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismini, aniqrog'i, **81,1 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **12,2 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajm avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi **6,7 %** ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi

(2021- yilning yanvar-oktabr oylarida)




Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-oktabr oylarida chakana savdo ulushi **80,0 %** ga yetdi.



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar




Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2021- yil yanvar-oktabr oylarida)

2021- yil yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 329,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-oktabr oylarida ularning hajmi **1 027,7** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **25,3** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar- oktabr oylarida ularning ulushi **25,1** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **301,8** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **27,5** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ularning o'sish sur'ati **132,9%** ni tashkil etgan.



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **95,2 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **3,6 %** oraliq'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **1,2 %** ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2021- yil yanvar-oktabr oylarida)

Yordamchi moliyaviy faoliyat



Sug'urta bo'yicha xizmatlar



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **95,0 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar

Sug'urta xizmatlarining ulushi **4,3 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **0,7 %**.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

**2020- y.
yanvar-oktabr**

199,6
mlrd. so'm

114,3 %

4,9 %

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

Jami hajmdagi
ulushi

Hajmning o'sishi

36,4 mlrd. so'mga

**2021- y.
yanvar-oktabr**

236,0
mlrd. so'm

116,8 %


4,5 %

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

2017-2021- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar




2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **234,6** mlrd. so'mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **4,5** % ni tashkil etdi. 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **122,5** % ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng yuqori hajmi Sharof Rashidov (7,3 mlrd. so'm), Zomin (5,5 mlrd. so'm), G'allaorol (4,3 mlrd. so'm), Zarbdor (3,2 mlrd. so'm) tumanlari va Jizzax shahrida (195,8 mlrd. so'm) qayd etildi.

Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi, mlrd. so'm (2021- yil yanvar-oktabr oylarida)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida Jizzax shahri bo'yicha ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 151,7 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi




2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarda yuqori o'sish Do'stlik (**203,4%**), Sharof Rashidov (**23,1 %**), Yangiobod (**22,0 %**), Zafarobod (**17,7 %**), Zarbdor (**17,2 %**), Zomin (**12,0%**), va Paxtakor (**11,7 %**) tumanlarida, shuningdek, Jizzax shahrida (**22,7 %**) kuzatildi.

Mazkur xizmat turidagi o'sish sur'atlarining biroz oshishi Arnasoy (**7,2 %**) va Forish (**8,0 %**) viloyatlarida qayd etildi.

Hududlar kesimida ta'lim xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y.
Yanvar-oktabr




97,2 mlrd. so'm




Xizmatlar hajmi

1,8 %




Xizmatlarning jami hajmidagi ulushi

140,4 %




O'sish sur'ati


2020- y.
Yanvar-oktabr



60,6 mlrd. so'm



1,5 %



92,8 %

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

104,4 mlrd.
so'm

131,6 mlrd.
so'm

Xizmatlar
hajmi

2020- y.
yanvar-oktabr

2021- y.
yanvar-oktabr

79,4 %

108,5 %


O'sish
sur'ati

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

2020-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **27,2** mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da



**2020- y.
yanvar-
oktabr**

**2021- y.
yanvar-
oktabr**



Yashash bo'yicha xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar-oktabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **89,9** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-oktabr oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **92,1** % ni tashkil etgan.



Jizzax viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-oktabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Jizzax viloyati	5 260,9	118,8	103,7
Jizzax shahar	2 116,7	119,2	108,2
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	122,0	112,4	98,2
Baxmal	322,3	118,3	97,4
G'allaorol	429,7	120,0	99,5
Sharof Rashidov	674,0	119,5	105,9
Do'stlik	195,0	119,4	100,3
Zomin	460,3	123,1	95,0
Zarbdor	207,9	116,4	98,4
Zafarobod	117,0	116,4	93,6
Mirzacho'l	148,2	114,1	96,0
Paxtakor	191,8	116,7	97,7
Forish	215,9	115,6	91,2
Yangiobod	60,1	116,5	92,7

**) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda*


2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021- yil yanvar-oktabr oylarida)



2021- yil yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Jizzax shahri tashkil etdi – **40,2** % (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida – **53,5** %). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Yangiobod tumanida – **1,1** % (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida – **0,7**%) qayd etildi.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

3 697,8
ming so'm

Hajmning
o'sishi

759,9
ming so'mga



116,3 %

O'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 697,8** ming so'mga yetdi.


2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **116,3 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **2 937,9** ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **101,5 %** da qayd etilgan.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

13 525 birlik



1 795 birlikka o'sgan

2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

115,3 %



57,6 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi




2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **57,6 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **16,9 %**, sanoat ulushi **16,3 %** ni tashkil etdi. Qurilish sohasining ulushi esa **9,2%** ga to'g'ri keldi.

2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **57,2 %** ni, sanoat **16,6 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **16,4 %** ni, qurilish **9,8 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**43,0 %**).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **10,8 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **4,8 %** ga yetdi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **2,4 %** ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **2,1 %** ga teng bo'ldi.

Savdo – 43,0

Boshqa turdagi xizmatlar – 36,9

Yashash va ovqatlanish – 10,8


Tashish va saqlash – 4,8

Sog'liqni saqlash – 2,4


Axborot va aloqa – 2,1

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

 Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.


Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2021- yil yanvar-oktabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **61,6 %** ni tashkil etdi

2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hisssasi **76,0 %** ga to'g'ri keldi.



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 72-221-51-27